

**“ULUG‘ SALTANAT” ASARIDA AMIR TEMUR SHAXSIYATI**

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, 2-bosqich talabasi

Xolmanova Arzigul Norpulat qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi bo‘lgan bobomiz Amir Temur hayotlari va uning avlodlari haqida gap boradi. Bu maqola uchun Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” nomli romanidan foydalanildi. Bunda Temurning yoshlik chog‘idan to vafotiga qadar va bundan tashqari uning avlodlari bilan bo‘lgan voqealar iloji boricha to‘liq aks ettirildi.*

Kalit so‘zlar: *O‘rta Osiyo, Takina xotun, oqko‘ngil, shaxs, sodiqlik va mardlik, Jamshid, Neko‘z, Hindiston, Bobur, qilichbozlik, dunyo, ota.*

Sohibqiron Amir Temur davri va hayoti jahon tarixining eng yorqin va betakror sahifalaridan hisoblanadi. O‘zbek xalqi o‘zining ulug‘ farzandini doim qalb qatida asrab keladi. Zabardast olim va adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti laureati Muhammad Ali ijodida Amir Temur mavzusi katta o‘rin tutadi. XIV asrning buyuk namoyandalardan biri Amir Temurdir. U O‘rta Osiyo va uning atrofidagi hududlarda kuchli davlat qurgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tanilgan. U o‘zining ibratli hayoti davomida to‘plagan tajribalarini “Temur tuzuklari” deb nomlab uni avlodlariga qoldirdi. Bobomizning hayoti va faoliyati faqat o‘z zamonasi uchun emas, balki keyingi avlodlari uchun ham muhim tarixiy meros qoldirdi.

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Shahrisabzda tug‘ilgan. U o‘zining harbiy qobiliyatlari va davlat boshqaruvidagi mahorati bilan yoshligidan tanilib kelgan. Otasi G‘iyosiddin Muhammad, onasi Takina xotun juda xushmuomala va oqila ayol edi. Temur bobomiz 1370-yildan boshlab siyosiy ishlarda faol qatnashadi. U O‘rta Osiyo, Eron, Hindiston va hatto Kichik Osiyo hududlarini o‘z ichiga olgan keng miqyosli davlatni boshqara boshladi. U o‘zining kuchli armiyasi, ma’muriy tizimi va ma’naviy rivojlanishiga qaratilgan siyosati bilan tarixda o‘z o‘rnini egalladi. Har bir buyuk shaxsning ortida yana buyuk shaxslar bo‘ladi. Temur bobomizning ham doimo yonida



turgan kishilari bo'lgan. Bular: ustoz piri murshid Mir Said Baraka, Amir Sayfiddin Neko'z, Amir Dovud Dug'lat, Amir Muayyad Arlot, Muhammad Bayon Sulduz va boshqalardir. Ayniqsa, hamma dardini unga aytib yuradigan -bu uning ustoz piri murshid Mir Said Barakadir. Amir Temur shu yaqin kishilari bilan butun Movarounnahrni zulm bilan boshqarayotgan Amir Husaynga qarshi turib, o'z yurtini ozodlik va hurlikka olib chiqadi. 34 yoshidan boshlab mamlakat poytaxti Samarqand taxtiga o'tiradi. Lekin u bolaligida qalbi qashshoq shoh Amir Husaynning qo'lida ishlab, yoshligidan qilichbozlik, ot chopdirish va bilim sohasida tajribalar orttirib yurgan va keyinchalik unga qarshi turib mamlakatda osuda hayot o'rnatdi. Amir Husayn xalqdan turli usullarda ko'plab soliqlar undirib, keyinchalik mamlakatni ichdan yemirilishigacha olib keldi va bunday holatdan bir mard kishi olib chiqib ketishi kerak edi. Bu mard kishi esa oddiy oilada voyaga yetgan kuchli, shijoatli va navqiron yigit Amir Temur edi. U har lahza Ollohni eslardi, ko'nglida doimo Olloh zikri bo'lgan. Shuning uchun ham doimo bobomizning yo'llari ochiq bo'lganlar. Amir Temurning butun hayotini turli manbalardan bilib olishimiz mumkin. Masalan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining "Ulug' saltanat" nomli roman epopeyasida bobomizning yoshligidan o'limiga qadar hayotlari aks etgan. Asarda Temurning tilidan janglarda bo'lgan muammolar paytida shunday degan: "Dunyo odam shaklidagi ilon va chayonlarga to'la oltin sandiqning naqd o'zi ekan. Asarda sodiqlik nimaligini bilmagan kimsalar ham topiladi. Masalan, Amir Muso shunaqa kishilardan edi. U dastlab Husayn qo'lida ishlaydi, keyin undan vos kechib Temur yoniga keladi. Lekin ungayam sodiqlik qilmagani tufayli o'lim bilan hayotiga nuqta qo'yiladi. Temur bunaqa nokas kishilarni necha marotabalab kechirgani sababli afsuslanib qolar edi. Temur juda kechirimli va oqko'ngil inson bo'lgan. Bu esa ko'pincha o'ziga jabr bo'lgan. Bironta insonning besabab qonini to'kilishiga yo'l qo'ymagan. Ko'p amirlar unga vafo qilmaydi, lekin bobomiz o'ta aqlli va zehni o'tkir bo'lganligi bois hammasiga yarasha javob qaytaradi.

Tarixda Jamshid, Kaykovus, Kayxisrav, Afrosiyob, Iskandari Zulqarnayn kabi podshohlar o'tgan bo'lsa-da, o'zimizning yagona vatanimiz ravnaqi, birlashishi yo'lida yagona Ollohni esida saqlagan holda adolat bilan shohlik qilgan Amir Temur



bobomizdir. Uning to'rt o'g'li: Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo va Shoxruh Mirzolar bo'lgan. Bular ham otasiga o'xshab xalqni odillik bilan boshqargan. Birinchi o'g'li Jahongir Mirzoning onasi Turmush oqa begim bo'lgan, ya'ni Amir Temurning birinchi xotini. Uning To'lin Oqa, Mengli bika va dushmani Husaynning xotini bo'lgan va keyinchalik Amir Temur qo'lga o'tgan Saroymulxonim kabi bir necha xotinlari bo'lgan. Ularning hammasi ham oqila va hayotni bilgan ayollardan bo'lgan. Temurbekning hamisha yonida bo'lgan egachisi Qutlug' Turkon og'aning ham o'rni katta bo'lgan. Amir Temur bobomizdan boshqa ular oilasida uchta: Suyurg'atmishxon, Olamshayx, Jo'ji no'yon kabi ukalari ham bo'lgan, lekin ma'lum sabablarga ko'ra vafot etganlar. Uchta opa -singillari ham bo'lgan: Xonzoda begim, Qutlug' Turkon og'a, Shirin bikalar. Amir Temur bobomizning hayotini o'rganib chiqib men juda ko'p hayotiy tajribalarga ega bo'ldim. Amir Temur bobomiz meni hayratga solgani shu bo'ldiki, u dilidan hech qachon Ollohni yiroqlashtirmadi, unutmadi. Menda bu insonga cheksiz muhabbat uyg'ondi. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" nomli romanini o'qib chiqqanimizda ham u insonga cheksiz tahsinlar aytamiz. Chunki ul zotning butun hayotlari juda ibratli bo'lgan. Aslida bu insonning butun hayotini o'rganib chiqishning imkoni bo'lmasa kerak. U oltmish to'qqiz yillik umri davomida juda ko'p ishlarni amalga oshirdilar. Bu bobokalonimizning hayotlari go'yoki bir ummon desak adashmagan bo'lamiz.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, bobomiz har ikki qo'lida bir xilda qilich bilan jang qila olganlar. U bir jangida chap oyog'idan o'q yeb umrbod oyog'ini oqsab yuradigan bo'lib qolgan ekanlar.

Amir Temur bobomizning doimo yonida bo'lgan Muhammad Churog'a-dodxoh bilan ko'p suhbatlar qurgan haqiqiy dilga yaqin do'sti edi. Ular qayerga jangga bormasin mashvarat qilishidan oldin o'zlari yolg'iz ancha vaqtgacha suhbat qurib o'tirardi. Temur bobomiz haqiqatni yoqtirardi. Yolg'on bor joyda turgisi kelmas, hech kimga yolg'on aytishga yo'l qo'ymasdi. "Ulug' saltanat" asarida Temur tomonidan aytilgan ulug' so'zlar ham bu so'zlarni isbotlaydi: __ "Ha, yondirib yuborg'ondim... Risolalarni emas, borib turg'on cho'pchaklarni yondirg'ondim. Doim to'g'ri so'zni yoqtiramen, yolg'onga toqatim yo'q! Yolg'onni bugun yashirasen, ertaga, indingacha



saqlay olasan. Yolgʻon bamisli pufak, suvning tagiga kuch bilan botirib yashirganing sari otilib yuzaga chiqishni istaydur! Ana ochilib qoladi bu sir, mana ochilib qoladi, deb hadiksirab yurgʻoning ortiqcha! ". ["Ulugʻ saltanat", 4-qism, 191-bet.] Yana aytish mumkinki, Temur bobomiz oʻziga berilgan taʼriflardan qoʻrqardi. Yaʼni kim uning saltanati haqida, oʻzi haqida birorta ortiqcha gap, soʻz aytilishini yoqtirmasdi. Asarning eng yaxshi tomoni shundaki, bu asarning har bir nuqtasidan bir ibrat topsak boʻladi. Kungillarni gʻuborlardan tozalovchi, yayratuvchi, ajoyib tuygʻular girdobiga otuvchi yagona asar deb hisoblayman.

“Ulugʻ saltanat” asarida shunday deyilgan: Alqissa, 771-hijriy, it yili, Qurʻoni karim nozil qilingan, ramazon oyi oʻn ikkisidan eʼtiboran tarixda salkam 500yil hukm surgan, bu borada tengi kam sulola jahon maydoniga kirib keldi. Sulola Sohibqiron Amir Temur hazratlari nomi bilan boshlanadi. ["Ulugʻ saltanat", 1-qism, 198-bet.]

Oʻttiz toʻrt yoshida Balxda oʻz taxtiga chiqqan Temur tarixda oʻchmas iz qoldirdi. Uning nevarasi boʻlgan Bobur Mirzoning hayotlari ayniqsa, xuddi Temurnikiga oʻxshamasada, juda ibratlidir. U sheʼriyatga oshno, mohir qilichboz, qoʻrqmas jangchi sifatlarini oʻzida mujassamlashtirgan.

Temur yonida qoʻynidagi ilon yangligʻ insonlar ham boʻlgan. Bular Zindachashm Opardiy, Qamariddin, Amir Muso, Xuttalon hokimi Kayxisrav va boshqalar va boshqalarsir. sulola yonida doim hamroh kishilar ham talaygina edi. Bular: Jabbor Bahodir, Tohir ismli yigit, Qosimbek qavchin va boshqa dili pok insonlardir. Amir Temur va uning avlodlarining hayotini oʻrganish bu bizning burchimizdir. Har bir shaxs bu sulolaning kechirgan hayotining har lahzasidan ibrat olsa boʻladi. Ulugʻ bobokalonlarimiz vafot etsalar hamki nomlari oʻchmaydi, ulugʻ ishlari unutilmaydi. Ular doimo qalbimizda, yuragimizdadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Muhammad Ali. Ulugʻ saltanat: Jahongir Mirzo. — Toshkent: Yozuvchi, 2019. — 224 b.
2. Muhammad Ali. Ulugʻ saltanat: Umarshayx Mirzo. — Toshkent: Yozuvchi, 2019. — 218 b.



3. Muhammad Ali. Ulugʻ saltanat: Mironshoh Mirzo. — Toshkent: Yozuvchi, 2019. — 216 b.
4. Muhammad Ali. Ulugʻ saltanat: Shohrux Mirzo. — Toshkent: Yozuvchi, 2019. — 230 b.